

REFERENCES

1. Conboy, Barbara T., and Patricia K. Kuhl. Impact of second-language experience in infancy: Brain measures of first- and second-language speech perception. *Developmental science* 14.2 (2011): 242-248.
2. Flege, J. E. (1995). Second language speech learning: theory, findings, and problems. In W. Strange (Ed.), *Speech Perception and Linguistic Experience: Issues in Cross-Language Research* (pp. 233-277). Timonium, MD: York Press.
3. Iverson, P., & Kuhl, P. K. (1995). Mapping the perceptual magnet effect for speech using signal detection theory and multidimensional scaling. *The Journal of the Acoustical Society of America*, 97(1), 553–562.
4. Marian, V., & Spivey, M. (2003). Competing activation in bilingual language processing: within- and between-language competition. *Bilingualism: Language and Cognition*, 6(2), 97–115.

ERTAK JANRI NUTQINING XARAKTERLI XUSUSIYATLARI

Ismatov Asliddin Fazliddin o‘g‘li

O‘zDJTU o‘qituvchisi, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: *ushbu tezisda hayoliy tasavvuri haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan, lekin shu bilan birga, u o‘quvchini o‘ziga jalb qiladigan ertak nutqidagi janrga xos ayrim o‘ziga xos xususiyatlar tahlilga tortilgan, hamda u ertak voqeligini qurishda katta so‘z mahorati va tez fikrlashni talab qilishi bilan ajralib turishi ta’kidlangan.*

Kalit so‘zlar. *Ertak matni, ertak nutqi, xronotop, klishe tuzilmalar, badiiy tasvir.*

Ertak nutqining maqsadi tinglovchiga ibrat, nasihat, hayotiy saboq berishdir. Shu bilan birga u tinglovchiga yaxshi kayfiyat, quvonch, zavq bag‘ishlaydi, uning dunyoqarashini kengaytiradi.

O‘zbek tilshunosligida ertak matni nutq nazariyasi doirasida o‘rganilmagan. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ertak nutqini folklor nutqining janri sifatida tan

olish va unga xos xususiyatlarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Shuningdek bu o'rinda ertak matni bilan ertak nutqi o'rtasidagi farq va o'xshashliklarni solishtirish maqsadga muvofiq, albatta. Quyidagi jadvalda ertak nutqi va muloqotdagi ertak matnining asosiy xususiyatlari taqqoslanadi:

Ertak matni	Ertak nutqi
Ertak matnida muloqot vizual tarzda amalga oshiriladi.	Ertak nutqida muloqot akustik tarzda amalga oshadi.
Ertak matni normalangan nutqiy harakatdir.	Ertak nutqidagi muloqot lingvistik va nolingvistik vositalar orqali amalga oshiriladi.
Ertak matnida munosabatlarga kiradigan odamlar o'rtasida alohida aloqa yo'q.	Ertak nutqidagi suhbatdoshlar bir-biri bilan alohida muloqot qilish imkoniyatiga ega.
Ertak matnida munosabatlarning tug'ilishi va uning qabul qilinishi turli bosqichlarda, turli makon va vaqt sharoitida amalga oshirilishi mumkin.	Ertak nutqida muloqotni amalga oshirish va uni qabul qilish bir vaqtning o'zida, makon va vaqt sharoitida amalga oshiriladi.
Ertak matnida muloqotni amalga oshirishda jonli aloqa mavjud emas	Ertak nutqining dialogik xususiyatiga ko'ra, muloqotda qatnashuvchilar kam bo'lsa-da, u kishilarning jonli aloqasi orqali amalga oshiriladi.
Ertak matni kognitiv faoliyat natijasidir	Ertak nutqi - bu kognitiv faoliyat mevasining doimiy kommunikativ hodisaga aylanishidir.
Ertak matni statik holat, lingvistik materialning ko'rsatkichidir.	Ertak nutqi dinamik jarayondir.
Ertak matni nutq uchun "tayyor mahsulot"dir.	Ertak nutqi tayyor mahsulotning hayotiy tasviridir

Ertak qahramonining o'ziga xos fazilatlari badiiy tasvir orqali beriladi, chunki mavhum hodisaning ma'nosini faqat badiiy usullar orqali tushuntirish va inson ongiga yetkazish mumkin. Masalan: "ochil dasturxon", "Muqbil; toshotar", "oltin baliq", "uchar gilam" va hokazo.

Rus xalqi folklorining tadqiqotchisi V.P. Anikin ta'kidlashicha: "Ertak hayratlanarli darajada yorqin, murakkab dunyoni yaratdi. Undagi hamma narsa

g'ayrioddiy: odamlar, yerlar, tog'lar, daryolar, daraxtlar, hatto narsa va buyumlar, mehnat qurollari. Masalan, bolta o'rmonni kesadi, kaltak dushmani uradi, tegirmon odamsiz maydalaydi.

Ertak nutqida nutqning maxsus tipik shakllari mavjud. Ertak boshida adabiyotda badiiy o'zlashtirilgan vaqt va makon munosabatlari bog'liqligi sifatida belgilangan bosh qahramonlar va xronotop tasvirlanadi. Matnning asosiy qismida asosiy voqealar ochiladi va odatda baxtli yakun topadi. Shu munosabat bilan, ertaklarda faqat ertak nutqiga xos bo'lgan klishe tuzilmalar va tavsiflar qo'llaniladi. Ular o'rnatilgan, tayyor an'anaviy barqaror shakllardir. Bu shakllar ertakni go'zallashtiradi, jonlantiradi va ta'sirchanligini oshiradi. Axborot-zarur xarakterdagi bu klishealar predikativ guruhlar va jumlar ertak nutqining kommunikativ talablariga muvofiq tayyorlanadi.

Shunday qilib, ertaklar nutqida real hayotda uchramaydigan, real bo'lmagan, lekin kattalarni ham, bolalarni ham o'ziga xos fantastik tasavvurlari bilan o'ziga tortadigan voqealar sodir bo'ladi. Ertak nutqining barcha ahamiyati ana shu voqealarning asosiy tuzilishida yotadi. Tomoshabin yoki o'quvchi ma'lum bir millat, elatning tabiati, bilimi, urf-odatlar, dunyo qiyofasi ertak nutqining bir xil asosli tuzilishi orqali ko'ra oladi. Ertak nutqida insoniyatning orzulari sodir bo'ladi va hikoya real tarzda emas, balki hayratlanarli tarzda sodir bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Аникин В.П. Русское устное народное творчество. – Изд. 2-е, испр. и доп. – М.: Высш. шк., 2004. – 160 с
2. Акименко Н.А. Лингвокультурные характеристики англоязычного сказочного дискурса: дис. ... канд. филол. наук: 10.02.04. – Волгоград, 2005. – 95 с
3. Каримова У.В. Лингвокультурологические характеристики сказочного дискурса: дис. ... магист. – Ташкент, 2013. – 88 с.